

**YANGI RENESSANS DAVRI TALABALARINING INTELLEKTUAL
QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGLARGA
TUSHADIGAN MAS’ULIYAT**

G‘aybullayeva Dilshoda

Nizomiy nomidagi TDPU

Peadagogika va psixologiya

magistratura mutaxassisligi

I bosqich magistranti

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Yangi Renessans davri haqida va unga asos bo‘lib ximat qilgan tarixiy ikki bosqich to‘g‘risidagi nazariy ma’lumotlar berilishi asosida bugungi kunda Yangi Renessans davriga munosib avlod vakillariga ta’lim berayotgan pedagog kadrlar va professor-o‘qituvchilarning zimmasiga tushadigan mas’uliyat va vazifalar xususida fikr-mulohazalar yuritiladi. Bundan tashqari birinchi va ikkinchi Renessans davrlarida munosib xizmat qilgan bobokalonlarimizning ishlari ham qisqacha fikrlarda qayd etib o‘tiladi.

KALIT SO‘Z VA IBORALAR:

Intellekt, kognitiv qobiliyat, salohiyat, ta’lim tizimi, Yangi Renessans, ilm-fan, taraqqiyot, fikrlash qobiliyati.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье на основе теоретических сведений о периоде Нового Возрождения и двух исторических этапах, послуживших его основой, рассматриваются обязанности и обязанности. Кроме того, кратко упоминаются произведения наших предков, служивших в первом и втором Возрождении.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА И ТЕРМИНЫ:

Интеллект, познавательные способности, потенциал, система образования, Новое Возрождение, наука, развитие, мыслительные способности.

ANNOTATION:

This article is based on theoretical information about the New Renaissance period and the two historical stages that served as its basis. responsibilities and duties are discussed. In addition, the works of our ancestors, who served in the first and second Renaissance, are briefly mentioned.

KEYWORDS AND TERMS:

Intelligence, cognitive ability, potential, education system, New Renaissance, science, development, thinking ability.

Davlatimiz va millatimizning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, unda rivojlanish pog‘onalaridan mardonovor o‘tishning mashaqqatli bosqichlari ko‘zga tashlanadi. Ushbu mashaqqatga boy bo‘lgan bosqichlarda davlatchiligidizning rivojlanishi, jamiyat hayotida ilm-u fan, madaniyat va san’at sohalarining yuksalishi, ilm va tafakkurda buyuklikka erishgan dono siymolarning ijod yo‘nalishida qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlari dunyo tamaddunining taraqqiy etishiga ulkan hissador ekanligi va faxrli jarayonlarni taqdim etadi.

Yurtimiz o‘tmishidagi birinchi Renessans va ikkinchi Renessans davrlari Somoniylar va Amir Temur hamda Temuriylar davrlariga to‘g‘ri kelishini tarixiy manbalardan yaxshi bilamiz. Bu ikki ulkan sulola vakillari nafaqat Movarounnahr, balki butun bir Markaziy Osiyo o‘lkalarining rivojlanishida, yangidan-yangi pillapoyalarga ko‘tarilishiga sababchi bo‘lishgan. Somoniylar va Amir Temur, Temuriylar davrida olib borilgan islohotlar davlatchilik asoslarining takomillashishiga asos bo‘ldi, buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom svilizatsiyasiga tamal toshini mustahkam qo‘yib berdi. Ijtimoiy sohada juda ko‘p tomonlama rivojlanish hamda fan, madaniyat, san’at kabi sohalarda ham yuksalish, tafakkur olamining taraqqiy

etganligi birinchi va ikkinchi Renessans davrining eng ko‘zga ko‘rinarli jihatlaridandir deya e’tirof etish mumkin.

Insoniyat tarixida shunday ulkan islohotlari bilan o‘chmas iz qoldirgan bobokalonlarimizning munosib avlodi sifatida bugun biz ham hissa qo‘shishimiz darkorligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik ayyomida davlatimiz rahbarining: «Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sish urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda»,— degan so‘zлari yangradi.

Darhaqiqat, tezkor sur’atlarda rivojlanish pillapoyasidan yuksaklikka qarab borayotgan jamiyatimizda yuz berayotgan taraqqiyot jarayonlari o‘zini barcha sohalar tarkibida namoyon etmoqda. Xususan, ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlarni alohida ta’kidlamaq joizdir. Ta’lim tizimini yuksaltirish maqsadida ilmga chanqoq yoshlar uchun barcha zaruriy imkoniyatlar eshigi ohib berilyapti. Faqatgina bu imkoniyatlardan munosib va oqilona foydalanuvchi yoshlar kerak. Shunday yoshlarning oliy ta’lim dargohidayoq intellektual yoxud kognitiv qobiliyatini mavjud holatidan yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardandir. Chunki Yangi Renessans davriga munosib talabalar tarkibini shakllantirish kelajakda o‘z sohasining yetuk kadrlari, va malakali mutxassislarning tarbiya topmog‘iga negiz bo‘ladi.

Shu o‘rinda aslida **intellektual yoki kognitiv qobiliyat nima**, degan savolning tug‘ilishi tabiiy.

Intellektual yoki kognitiv qobiliyat talabaning fikrlash qobiliyatining o‘sish sur’atlariga bog‘liqligi uchun aynan fikrlash qobiliyatining o‘sishi degan ta’rif xato bo‘lmaydi. Bu talabalar ayni vaqtda yashayotgan olamni tushunish uchun o‘z ongini, g‘oyalarini va fikrlarini qanday tartibga solish zarurligini ham anglatadi. Bugungi Yangi Renessansning bilimlar davri professor-o‘qituvchilar va talabalar oldiga axborotni tahlil qilish va tartibga solish bo‘yicha yangi talablarni qo‘ymoqda. Buni

amalga oshirish uchun esa zarur bo‘lgan intellektual ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, rasmiy operatsiyalar va ijodkorlikdagi nazariy peshqadamlilikka ega bo‘lish zarurati tug‘ilmoqda. Shu boisdan ham talabalarga bilim berayotgan profeesor-o‘qituvchilar, pedagoglarning mas’uliyati ortmoqda.

Yangi Renessans davriga munosib talabalar tarkibini shakllantirishning maqsadi talabalarni kelajakdagi urinishlardagi qiyinchiliklarga javob berishga tayyor bo‘lgan faoliyatga qaratilganligi sababli, talabalarning intellektual rivojlanishi barcha Yangi Renessans davrining ishtirokchi pedagoglari va professor-o‘qituvchilarining asosiy mas’uliyati hisoblanadi. Ular barcha fanlar bo‘yicha oliygoh talabalarining yangi davr darajasidagi vakolatlari bilan bog‘liq salohiyatini rivojlantirish, talabalarning tanlangan fan bo‘yicha tajribasini yuksaltirish uchun imkoniyatlar yaratish borasidagi amaliy ishlar uchun javobgardirlar.

Talabalarning intellektual jihatdan rivojlanishining dalillari intizom, tajriba darjasasi va individual profeesor-o‘qtivchilarning tayinlanishi bilan bog‘liq. Biroq barcha professor-o‘qituvchilar vaqtি-vaqtি bilan o‘zлari shug‘ullanadigan faoliyatni, o‘z-o‘zini baholashlarini ko‘rsatishlari va o‘qitish, talabalarning o‘rganishi yaxshilanganligini isbotlashi kerak.

Yangi Renessans davri haqidagi Amaliy harakatlarning hayotimizda barq urishi biz qanday fikrlashimiz va o‘rta maktabdan keyingi o‘quv yurtlarida intellektual ko‘nikmalar qanday o‘rgatilgann va o‘rganilayotganini tushunish zaruriyatiga turtki bo‘ldi. Pedagoglar va profeesor-o‘qituvchilar soha mutaxassisni sifatida fanlar bo‘yicha bilimlarning o‘sishi va zamon talabining ortib borishi va uning ta’siridian yaxshigina xabardorlar. Bunda talabalarning bilim olish vazifasi ham sezilarli darajada oshganini aytib o‘tish kerak. Yangi Renessans davri pedagoglari va professor-o‘qituvchilar vazifasining mohiyati ham shu asosda o‘zgarishga sabab bo‘ldi.

Agar avvallari professorlar o‘z fanlari bo‘yicha ma’lum bir bilim to‘plamini ko‘rib chiqishlari, taqdim etishlari va tanqidiy baholashlari joiz bo‘lgan bo‘lsa, endilikda professorlar yangi sintez yaratish, kengroq doirada ma’lumot yig‘ish vositalarini aniqlash uchun chuqurroq izlanishlari hamda an’anaviy «tizim»dan tashqariga chiqishlari talab etiladi. Shundagina talabalarga bilimlarni bog‘lash va tartibga solish uchun strategiyalar va intellektual ko‘nikmalarni o‘rgatish ko‘lami kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Andreev, V. I. (2003). Training for creative self-development. Centre for Innovative Technologies Press, 603.p.
2. Atqiyayeva S. I. Developing intellectual capabilities of students in teaching chemistry// Журнал «Образование и наука в XXI веке». 2021. Выпуск №10, том 3.C.684-692.
3. Atqiyayeva, I. S., Kurbanova, A. D., Komilov, Q. O., Fayziyev, X. O. Kimyoni o‘qitishda o‘quvchilarining intellectual imkoniyatlarini rivojlantirishda elektron taqdimotlarning qo’llanilishi. academic research in educational sciences//2021, 2(Special Issue 4), 47-52.
4. Baidenko, V. I. (2004). Competence: competence-based approach to development. Journal of Higher Education, 11, 3-14p.
5. Derkach, A. A. (2000). Psychology: personal and professional development of the individual. RAGS Press, 299.p.